P.QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA “VAQT” KONSEPTINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI

Urolova Zavra Avaz qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
talabasi
Ilmiy rahbar **Sobirova Shahzoda Faxriddin qizi**

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” tarixiy-biografik romani materiali asosida vaqt konseptini ifodalovchi til birliklarining lingvokognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda vaqt konsepti obyektiv-xronologik va sub'ektiv-badiiy qatlamlarga ajratib o‘rganiladi, romondagi sutka vaqtini ifodalovchi birliklar, tabiiy-kalendar vaqt, davomiylikni ifodalovchi birliklar, ketma-ketlik va chegarani bildiruvchi birliklar, tarixiy-ijtimoiy vaqt, biografik/shaxsiy vaqt, pisixologik vaqt hamda fasllarga oid leksik-semantik guruhlar, shuningdek vaqtga oid konseptual metaforalar va frazeologik birliklar tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari asarda “tun” leksemasining markaziy konsept sifatidagi o‘rnini, vaqtning xotira, sog‘inch va vatan konseptlari bilan kognitiv aloqadorligini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *lingvokognitiv tahlil, vaqt konsepti, konseptual metafora, badiiy matn, “Yulduzli tunlar”, Pirimqul Qodirov, leksik-semantik guruh.*

Аннотация: *В данной статье на материале историко-биографического романа Пиримкула Кадырова «Звёздные ночи» анализируются лингвокогнитивные особенности языковых единиц, репрезентирующих концепт времени. В исследовании концепт времени рассматривается в двух аспектах: объективно-хронологическом и субъективно-художественном. Анализируются лексико-семантические группы, включающие единицы, обозначающие время суток, природно-календарное время, длительность, последовательность и границу времени, историко-социальное, биографическое/личное и психологическое время, а также лексику, связанную с временами года. Кроме того, рассматриваются концептуальные метафоры времени и фразеологические единицы. Результаты исследования раскрывают центральное положение лексемы «ночь» как ключевого концепта произведения, а также её когнитивную взаимосвязь с концептами памяти, тоски по родине и Отечества.*

Ключевые слова: *лингвокогнитивный анализ, концепт времени, концептуальная метафора, художественный текст, «Звёздные ночи», Пиримкул Кадыров, лексико-семантическая группа.*

Abstract: *This article analyzes the linguocognitive features of linguistic units representing the concept of time based on the material of Pirimqul Qodirov’s historical-biographical novel Starry Nights. The study examines the concept of time within two dimensions: the objective-chronological and the subjective-artistic. It analyzes lexical-semantic groups comprising units denoting time of day, natural-calendar time, duration, temporal sequence and boundaries, historical-social time, biographical/personal time,*

psychological time, as well as vocabulary related to the seasons. In addition, conceptual metaphors of time and phraseological units are examined. The findings reveal the central role of the lexeme "night" as a key concept in the novel and demonstrate its cognitive relationship with the concepts of memory, longing, and homeland.

Keywords: *linguocognitive analysis, concept of time, conceptual metaphor, literary text, Starry Nights, Pirimqul Qodirov, lexical-semantic group.*

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi inson tafakkuri, madaniyati va tilining o‘zaro bog‘liqligini ochib beruvchi asosiy kategoriyalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Vaqt konsepti esa insoniyatning eng qadimiy va universal mental kategoriyalaridan bo‘lib, u har bir xalqning tilida, dunyoqarashida va badiiy tafakkurida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Badiiy matn, xususan tarixiy roman, vaqt konseptining lisoniy ifodalanishini o‘rganish uchun boy material beradi, chunki yozuvchi o‘tmish voqealarini tasvirlar ekan, vaqtni nafaqat xronologik, balki falsafiy-psixologik kategoriya sifatida ham talqin qiladi. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani o‘zbek tarixiy-biografik nasrining yorqin namunasi bo‘lib, unda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati bilan bog‘liq voqealar tasvirlanadi. Ushbu asarda vaqt konsepti nihoyatda muhim o‘rin tutadi: qahramon o‘tmishni sog‘inish, kelajakka intilish, tarixiy jarayonning beshafqatligi kabi holatlarni boshdan kechiradi. Shu bois romondagi vaqt semantikasini ifodalovchi til birliklarining lingvokognitiv tabiatini tadqiq etish dolzarb ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi — romon matnida vaqt konseptini voqelantiruvchi leksik-frazeologik va metaforik birliklarni aniqlash, tasniflash va ularning kognitiv semantikasini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi

Konsept tushunchasi va uni o‘rganishning turli nazariy-metodologik yondashuvlari J. Lakoff, M. Johnson, A. Wierzbicka, Y. Stepanov, N. Boldyrev kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mazkur olimlar konseptni kognitiv, semantik va lingvokulturologik jihatdan turlicha talqin qilib, uning inson tafakkuri, tili va madaniyati bilan uzviy aloqasini asoslab berganlar. Lingvokognitiv tahlil metodi tilni ongning, tafakkurning aksi sifatida o‘rganishga asoslanadi va til birliklari orqali inson tafakkurida shakllangan konseptual tuzilmalarni qayta tiklashga yo‘naltirilgan. Mazkur maqolada tavsiflash, kontekstual tahlil, konseptual metafora tahlili va komponentli tahlil usullaridan foydalanildi. Vaqt konseptini tahlil qilishda uning uch asosiy o‘lchovi — obyektiv (fizik-kalendar) vaqt, sub'ektiv (psixologik) vaqt va badiiy (matn ichki) vaqt — bir-biridan farqlanadi. Aynan shu uch qatlam romondagi til birliklarida turlicha leksik-grammatik vositalar orqali ifodalangan.

Romonda vaqt konseptini ifodalovchi leksik-semantik guruhlar:

1. Sutka vaqtini ifodalovchi birliklar: Saraton issig‘ida Farg‘ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuq bulutlar kuni bo‘yi havoni dim qilib turdi-yu, kechki payt birdan jala quyib berdi. (3 bet); Bu yilgi ro‘za yoz chillasiga to‘g‘ri kelgan, jazirama kunlarda tong sahardan kechqurun qorong‘i tushguncha tuz totmay och yurish ko‘p odamning sillasini quritar, buning ustiga tashnalik azobi qo‘shilardi. (12 bet);

Ertasi kuni peshinda Andijon arkining qarshisidagi jazo maydonida nog‘oralar chalindi. (129 bet) Kun qiyomiga kelib, peshin namozi o‘qilgandan keyin ko‘shkning ich-tashi jimjit bo‘lib qoldi. (88 bet; Xufton kechroq Xo‘ja Kalon boshliq navkarlar Mahdi Sultonni ham qo‘lga tushirib keldilar. (937 bet);

Mulla Fazliddin xufton payti hovliga kirib kelsa, pochchasi bilan opasi yov yaqinlashayotganini eshitib, vahimaga tushib o‘tirishgan ekan. (135 bet);

Tohir hamyonni qo‘yniga solib chiqib ketganicha peshin kechroq oyog‘iga yangi askariy etik, boshiga mo‘g‘ulcha bo‘rk kiyib, chakmonga o‘xshash dag‘al yungli dag‘alani yelkasiga tashlab keldi. (238 bet); Tun yarmidan oqqan bo‘lsa ham Andijonning ko‘chalari va hovlilaridan otlarning dupuri, itlarning vangillashi, ayollarning dod-voyi, bemahal qo‘zg‘atilgan sigir va qo‘ylarning ma’rashi eshitilmoqda edi. (331 bet); Iztirobli o‘ylar tuni bilan mulla Fazliddin ko‘ziga uyqu qo‘ndirmadi. (24 bet); Tong otib, azon aytilgandan so‘ng ro‘za o‘z kuchiga kiradi... Podshohni saharliksiz qoldirish begimlar uchun o‘zlari och-nahor qolishlaridan qo‘rqinchliroq edi. (49 bet); So‘nggi oylarda Bobur ko‘ngil dardlarini qog‘ozga tushirishga ko‘p ehtiyoj sezar va deyarli har kuni she’r mashq qilar edi. (445 bet);

Boburning qo‘shini kun sayin ko‘payib boryapti. (576 bet) kabi misollarni keltirish mumkin.

2. Tabiiy-kalendar vaqt : Milodiy 1494-yilning yozi. Saraton issig‘ida Farg‘ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuq bulutlar kuni bo‘yi havoni dim qilib turdi-yu, kechki payt birdan jala quyib berdi. (3 bet); Bu yil bahorda ota-onalari ularni unashtirib qo‘ygan paytlarida ham Robiya Tohirga hozirgichalik chiroyli ko‘rinmas edi. (6 bet); Ro‘zaning azobi endi bilina boshlagan, yoz kunida chanqab holsizlangan odamlar kunni qanday kech qilishni bilmay, betoqat bo‘lishar edi. (88 bet); Bu ketishda yozga borib Boburning qo‘shini yana ham ko‘payadi. (574 bet);Boburning qo‘shini Samarqandni butun yoz va kuz bo‘yi qamal qildi. (263 bet); Qish kuni bularning hammasini oziq-ovqat va yem-xashak bilan ta’minlash oson emas. (789 bet); Hozir qahraton qish kunida uyida oilasi bilan tinchgina o‘tirishi mumkin. Bu gal qishda yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lishdan maqsadi faqat pul ishlash emas.− O‘tganlar bor, − dedi Sulton. − Ammo bu yil qor juda ko‘p. Ko‘chki bosib qolishidan qo‘rqmasangiz...

3. Davomiylikni ifodalovchi birliklar: Boysunqur mirzo yetti oy shahar darvozalarini berkitib yotdi-yu, axiri ochlik va tanqislikka bardosh berolmay, sovuq qish kechalaridan birida yaqin odamlari bilan Samarqanddan yashirincha chiqib, Hisor tomonga qochdi. (263 bet); Biroq endi urush dovuli Quvaga yaqinlashib kelayotgan shu xatarli damlarda Robiya unga har qachongidan ham aziz, har qachongidan ham g‘animat ko‘rindi. (6 bet); Bu − Umarshayx mirzoning qizi. Andijon chorbog‘ida podshoh oilasi uchun tillakori ko‘shk qurgan paytlarida o‘n sakkiz yoshli Xonzoda begim uning musavvirligini ham bilib qolib, o‘zining suratini chizdirgan. (23 bet); Keksa bog‘bonning daraxt payvand qilayotgan payti... (23 bet); Robiyaning mayin soch tolalari yigitning yuziga tegdi, bir lahza ikkovining nafasi nafasiga qo‘shilib ketdi. (7 bet); Mulla Fazliddin so‘nggi kunlarda boshdan kechirgan mudhish hodisalarni eslab, bir lahza og‘ir sukutga ketdi... (20 bet);Otam doim shunday deydi. (8 bet); Hamisha saltanat tashvishi-yu urush-yurishlar... (636 bet); Bir payt o‘rmon ichida tuya yetaklab, piyoda ketayotgan navkarlardan allaqaysisining jon achchig‘i bilan chinqirgani eshitildi. (1079 bet); Bir haftadan beri har kuni qor yog‘adi. Bir oy vaqt yutgaymiz! − Aylanib

o‘tganingizgacha qirq-ellik kun vaqt ketgay! − e’tiroz qildi Qosimbek. Ora uzoq − otda bir oy-qirq kunlik yo‘l. (781 bet);Qamchi hamon tishida edi, uni qo‘liga oldi, navkar yetaklab kelgan bo‘z otga indamay mindi.

4. Ketma-ketlik va chegarani bildiruvchi birliklar: Bu yil bahorda ota-onalari ularni unashtirib qo‘ygan paytlarida ham Robiya Tohirga hozirgichalik chiroyli ko‘rinmas edi. (6 bet); So‘ng boya Tohirlar o‘tirgan dasturxonlik uyga kirdi. (16 bet); Ro‘zaning azobi endi bilina boshlagan, yoz kunida chanqab holsizlangan odamlar kunni qanday kech qilishni bilmay, betoqat bo‘lishar edi. (88 bet); Kun qiyomiga kelib, peshin namozi o‘qilgandan keyin ko‘shkning ich-tashi jimjit bo‘lib qoldi. (88 bet); Men avval qo‘rg‘ondagi beklar bilan so‘zlashay, amirzodam! Ularning kayfiyatini bilay! (97 bet); − Bu xabar hozircha sir tutilmog‘i kerak edi! (92 bet); Keyin eshitsalar, uni Abusaid mirzo haramiga bir necha kunlik joriya qilib beribdilar... (787 bet); Shohruhning o‘limidan keyin boshlangan alg‘ov-dalg‘ovlarda Turondan Abusaid mirzo o‘g‘li Mahmud mirzo bilan Xurosonga bostirib keldilar.(787bet);

5. Tarixiy-ijtimoiy vaqt− Yo Parvardigor! Oxirzamon degani shumikin, mulla Fazliddin? (19 bet); − Xonim hazratlari, hozirgi zamonda zo‘ravonlikka mo‘minlik mutlaqo rost kelmas. (213bet)

6. Biografik/shaxsiy vaqt: Bu − Umarshayx mirzoning qizi... o‘n sakkiz yoshli Xonzoda begim uning musavvirligini ham bilib qolib, o‘zining suratini chizdirgan. (23 bet); Uni bolaligida Abulxayrxon o‘zi tarbiyalagan ekan. (406 bet); U Oyisha begimning o‘zini eslolmasa ham, besh yoshida Sulton Ahmad mirzoga uzatilgan termizlik go‘zal bir kelinchakni yaqindan ko‘rgani yodida. (209 bet); Bobur − Temuriylardan ekani, Abusaid mirzo uning bobosi bo‘lgani Sultonning o‘n yosharlik paytida boshdan kechirgan fojialarni esiga soldi. (786-787 bet);

7. Psixologik vaqt: Biroq endi urush dovuli Quvaga yaqinlashib kelayotgan shu xatarli damlarda Robiya unga har qachongidan ham aziz, har qachongidan ham g‘animat ko‘rindi. (6 bet);

O‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi: Romonda vaqt konsepti ikki qatlamli tuzilishga ega: obyektiv-xronologik (tarixiy sanalar, hukmdorlik davrlari) va sub'ektiv-badiiy (ichki kechinma, xotira, sog‘inch) qatlamlar.

“Tun” leksemasi asarning bosh konsepti sifatida markaziy o‘rin tutadi va u yolg‘izlik, tafakkur, ijod, sog‘inch kabi qo‘shimcha kognitiv ma’nolarni o‘zida mujassam etadi. Vaqt konsepti tabiat, xotira, vatan, ayriliq kabi boshqa konseptlar bilan uzviy kognitiv aloqada namoyon bo‘ladi, bu esa yozuvchining badiiy dunyoqarashida vaqt kategoriyasining ko‘p qatlamli mohiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

Vaqtni ifodalovchi birliklarning katta qismi metaforik xarakterga ega bo‘lib, ular orqali muallif tarixiy shaxs (Bobur)ning ichki dunyosini, uning zamon va makon bilan murakkab munosabatini ochib beradi.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil “Yulduzli tunlar” romanida vaqt konsepti murakkab, ko‘p qatlamli tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatdi. Roman matnida vaqt obyektiv-xronologik (sutka, fasl, tarixiy davr) va subyektiv-badiiy (xotira, sog‘inch, ichki kechinma) qatlamlar uyg‘unligida

ifodalangan. “Tun” leksemasi asarning markaziy konsepti sifatida yolg‘izlik, tafakkur va sog‘inch kabi kognitiv ma’nolarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Vaqtni ifodalovchi birliklar yetti leksik-semantik guruhga (sutka, kalendar, davomiylik, ketma-ketlik, tarixiy-ijtimoiy, biografik, psixologik vaqt) bo‘lib tahlil qilindi va ularning ko‘pchiligi metaforik-frazeologik xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Vaqt konsepti vatan, xotira va ayriliq konseptlari bilan uzviy bog‘liq holda Bobur obrazining ichki dunyosini ochib berishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, vaqt konsepti romonda oddiy struktur vosita emas, balki muallifning badiiy dunyoqarashi va tarixiy shaxs ruhiyatini ochuvchi chuqur kognitiv kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamanova Z. Nemis va o‘zbek tillarida vaqt konseptining lingvokulturologik talqini. – Toshkent. 2026, aprel – B: 315-319.
2. Allayorova Ch. Ingliz va o‘zbek maqollarida “vaqt” konseptining obrazli ifodalanishi. – Toshkent. 2026, may – B: 275-278.
3. Rahimov S. “Vaqt” konseptining lingvomadaniy modeli: ingliz va o‘zbek tillari qiyosi. – “World of Philology” Scientific Journal, Volume 5 Issue 2 | February 2026 – P: 232-239. https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.037
4. Kubryakova E.S. Til va bilim: kognitiv yondashuv asoslari. – Moskva, 2004, 148-bet.
5. Maslova V.A. Lingvokulturologiya asoslari. – Moskva, 2001, 57-bet.
6. Qodirov P. Yulduzli tunlar. Sharq nashriyoti: – Toshkent, 2016.